

## FAYZULLA XO'JAYEVNING HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI

**Jonuzoqov Muzaffarbek Nizomjon o'g'li***Oriental unversiteti magistranti*

**Annotatsiya:** *XX asr boshlarida Turkiston va Buxoro siyosiy maydonida o'chmas iz qoldirgan yirik davlat va jamoat arbobi, milliy ma'rifatparvarlik (jadidchilik) harakatining yetakchilaridan biri Fayzulla Xo'jayevning hayoti va serqirra faoliyatini yoritishga bag'ishlanadi. Mazkur mavzu sovet mustabid tuzumi davridagi milliy ziyolilarning fojiali taqdiri, xususan, 1937–1938-yillardagi qatag'on siyosati va uning qurboni bo'lgan F. Xo'jayev faoliyatini obektiv o'rganishga qiziquvchi talabalar, yosh tarixchi olimlar va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.*

**Kalit so'zlar:** *Fayzulla Xo'jayev, Ubaydullaxo'ja Qosimxo'jayev, "So'l qanot", Buxoro, Yosh buxoroliklar, "Milliy ittihad", BXS, "Bosmachilik", Fayzulla Xo'jayev uy-muzeyi.*

Tarixdan barchamizga ma'lumki o'zbek elining hayoti muntazam urushlar ostida bo'lgan. Ko'p bosqinchilar tazyiq ostiga olgan madaniyati, tili va dinini yo'q qilishga harakat qilgan. O'zbek millatini o'ziga qaram qilib olishga urungan. Lekin shu urushlarga qaramay o'zbek millati o'zini tiklab olgan va har qanday holatga qaramay o'zligini yo'qotmagan. Buning asosiy sababi o'zbek millatining sadoqatli, irodali va milliy yuksalishga intilgan mard o'g'lonlari tayanch ekanligidir. Shunday mard o'g'lonlar sirasiga Shiroq, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi kabilar kiradi. Ma'rifatparvar, islohotchi, milliy tiklanish va milliy yuksalish g'oyasini ilgari surgan o'zbek o'g'loni Fayzulla Xo'jayevni ham haqli ravishda millatimizning asil fidoyi farzandlari qatoriga qo'shish mumkin. Ilmli, o'z zamonasining bilimdoni, siyosatdon va madaniyatli, o'z tarixini yaxshi biladigan inson bo'lgan Fayzulla Xo'jayev 1896-yilda Buxoroda yirik savdogar oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Ubaydullaxo'ja Qosimxo'jayev Moskvada o'zining xususiy savdo mahkamasiga ega bo'lib, Rossiyaning o'zida hamda xorijiy bozorlarda qorako'l teri bilan keng miqyosda savdosotiq yurgizar edi. U kelajakda o'g'lini o'ziga o'xshagan e'tiqodli, ilmli, musulmon bo'lib yetishishini istar edi. Fayzulla Xo'jayev savdogar oilasida tug'ilganligi uchun har tomonlama yaxshi ta'minlangan edi. U otasidan qolgan boyligni jadid maktablari ochishga, yosh buxoroliklar faoliyatini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga sarfladi. Buxoroning asl farzandi Fayzulla Xo'jayev o'zi boshchiligida milliy yuksalish va milliy tiklanish go'yasini ilgari surib chiqadi. Bundan tashqari 1917-yildan boshlab Fayzulla Xo'jayev va Abdurauf Fitrat yosh buxoroliklardan ajralib chiqqan "So'l qanot"ga boshchilik qilishadi. Fayzulla Xo'jayev jadidchilar bilan birgalikda Buxoroda konstitutsion monarxiya, so'ngra demokratik respublika tuzish uchun kurashdilar. Fayzulla Xo'jayev bu harakatga 1913-yilda qo'shiladi. Bu harakat Buxoro sharoitida

ma'lum taraqqiyot ahamiyatiga ega edi. Yosh Fayzullada taraqqiyparvar g'oyalarning shakllanishida Buxoroning dastlabki ma'rifatparvarlaridan biri Abdulvohid Buxonovning sezilarli ta'siri bo'lgan. Buxoroda demokratik harakat aholi o'rtasida ma'rifat va madaniyat tarqatish uchun kurashdan boshlanadi. Mazkur maktablarda diniy ta'lim asoslari bilan bir qatorda matematika, geografiya, tabiatshunoslik kabi dunyoviy va ijtimoiy fanlar ham o'qitiladi. Yangi usul maktablar Buxoroda avvaldan mavjud bo'lgan maktablarga (maktabi usuli qadimi)ga qarama-qarshi yo'sinda tashkil etiladi. Milliy ziyolilar va mahalliy hukumatning maorifni isloh qilish harakatiga yetakchilik qilgan ayrim vakillari mavjud tuzumga va Buxorodagi mustabid boshqaruv usuliga tanqidiy nazar bilan qaraganlarning barchasini yangi usul maktablari atrofiga birlashtira boshladi. Buxoro o'sha yillari musulmon dining beshigi, islom dining tayanchi hisoblanar edi. Shahardagi 364 ensiz va tor ko'chalarda 360 ta masjid, hammasi bo'lib 20 mingga yaqin talabaga ega bo'lgan 138 maktab va madrasa bo'lib, talabalarning aksariyati ruhoniy, savdogar, amir amaldorlari va boy tabaqa vakillarining bolalari edi. Fayzulla Xo'jayev o'z mamlakatining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniyat sohalaridagi qoloqligiga barham berish, xalq ommasining turmushini yaxshilash yo'llarini qidirdi. Bu borada Fayzulla Xo'jayev va yosh buxoroliklar ham bir masalada - Buxoroni taraqqiyot yo'liga olib chiqish masalasida bir xil fikrda edilar. Jadidlar dastlab madaniy-ijtimoiy ishlar bilan shug'ullandilar, keyinroq esa uncha-muncha demokratik ozodlik haqidagi talablar bilan chiqa boshladilar. Jadidlar harakatida faol qatnashgan Fayzulla Xo'jayev Buxoroni taraqqiy ettirish uchun ham ayrim o'zgartirishlar kiritish lozimligiga tobora ko'proq ishonch hosil qila boshladilar. U jadidlar orasidan o'z g'oyalariga tarafdorlarni ham topdi va ulardan boshqa safdoshlari bilan birgalikda, 1917-yilda "Yosh buxoroliklar partiya"sini tuzdi. 1917-yil aprel oyida Yosh buxoroliklar Fayzulla Xo'jayev boshchiligida xalqqa ba'zi bir demokratik erkinliklarni berish kerakligi to'g'risidagi talablar bilan amirga murojaat qildilar. Ammo, amir yosh buxoroliklarga yon bosmadi, ulardan qattiq o'ch oldi. 1918-yilda vujudga kelgan Buxoro Kommunistik partiyasi xalq ommasining tub manfaatlarini ifodalari edi. Fayzulla Xo'jayev xalq ishiga shijoat bilan kirishib, hormaytolmay ish olib borib, BXSR(Buxoro Xalq Sovet Respublikasi) Xalq Nozirlari Sovetining raisi lavozimida harakat qildi. Fayzulla Xo'jayev 1920-yil yanvar oyida Toshkentda tashkil topgan inqilobchi yosh buxoroliklar partiyasi Markaziy buyurosi raisi bo'lib ishlay boshladi. 1920-yil 14-sentabrda Buxoro Xalq Nozirlar Kengashin tuzildi. Fayzulla Xo'jayev Tashqi Ishlar Noziri lavozimida ishlay boshladi. Buxoro Respublikasi davlat arbobi bo'lgan Fayzulla Xo'jayev birinchi kundanoq mustaqil siyosat yurgazishga, Rossiya va xorijiy davlatlar bilan teng huquqli aloqalar o'rnatishga harakat qildi. U o'zbek xalqining farzandlari ilm olishi yo'lida ancha ishlarnin amalga oshiradi. Talabalarni xorijiy mamlakatlariga jo'natib o'qitish tashabbusi bilan chiqqan. Fayzulla Xo'jayev ma'ruzalaridan birida xalqiga qarata shunday degan edi: "Barcha fikr va barcha bilimlar yagona oliy maqsad - bizning buyuk Vatanimizni barcha choralar bilan

mustahkamlashga yo'naltirilishi lozim". Fayzulla Xo'jayev o'zining xalq oldidagi burchini bajarishda kuch va sog'lig'ini ayamasa edi. U hatto bemorligiga qaramasdan Moskvada yosh respublikaning iqtisodiy va madaniy qurilishiga doir juda ko'p masalalarni hal qildi. Fayzulla Xo'jayev BXSRS hukumatining boshlig'i lavozimida 4 yil ishladi. Bu davr davlat arbobi bo'lgan uchun kata maktab, xo'jalik-tashkilotchilik ishlari maktabi bo'ldi. Fayzulla Xo'jayevning O'zbekistonni namunali respublikaga aylantirish to'g'risidagi ezgu niyati ro'yobga chiqdi. U faqat o'zbek millatining ravnaqi uchun emas, balki o'nlab turli millat farzandlari mehnat qilayotgan O'zbekiston Respublikasining ravnaqi uchun, shu respublikada yashayotgan barcha millatlarning baxtli hayoti uchun kurashdi. Fayzulla Xo'jayev rahbarligida 1923-yildayoq aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish, umumiy ta'lim maktablari, bilim yurtlari va kurslar tarmog'ini kengaytirish sohasida anchagina amaliy choralar ko'rildi. Aholiga ishchilar, xizmatchilar, hunarmandlar, yersiz va kam yerli dehqonlarga davlat hisobidan tibbiy xizmat ko'rsatish, mehnat, ijtimoiy ta'minot hamda sog'liqni saqlash nozirligi tomonidan yo'lga qo'yildi. Eski Buxoroda 200 o'rinlik dastlabki shahar kasalxonasi, 12 ta davolash-ambulatoriya punkti ochildi.

Mamlakatimizda XX asrning boshida millatimiz ravnaqi yo'lida fidoyilik ko'rsatgan taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg'or g'oya va qarashlarini tadqiq etish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidadagi o'rni va rolini o'rganish borasida keng ko'lamlil ishlal amalga oshirilmoqda. Fayzulla Xo'jayevning ushbu faoliyati nafaqat ta'lim sohasiga yangilik kiritish, balki milliy uyg'onish va siyosiy mustaqillikni qo'llab-quvvatlashga ham xizmat qilgan. U o'z faoliyati orqali O'zbekistonning ijtimoiy-madaniy hayotidagi muhim o'zgarishlarga turtki berib, bu boradagi tashabbuslari bilan yanada taniladi. Yangi maktablarning tashkil etilishi nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar va ma'rifatchilar uchun ham zamonaviy bilim olish, o'z sohasida malaka oshirish imkoniyatlarini yaratdi. Ayni ta'lim islohotlarida Abdurauf Fitratning ham hissasi katta edi. Fayzulla Xo'jayevning taklifi bilan Toshkentda pedagogik va ijodiy faoliyat bilan qizg'in shug'ullanayotgan Abdurauf Fitrat Buxoroga keladi. Buxoro xalq dorilfununi ochilishi to'g'risida tarixiy qaror qabul qilindi. Ma'lumki, mamlakat uchun oliy ma'lumotli mutaxassislar zarur edi. Yangi ochilgan Toshkentdagi Turkiston davlat universitetidan esa Munavvar qori Abdurashidxonov boshchiligidagi o'zbek o'qituvchilari siqib chiqarilgan, mahalliy yoshlar uchun turli-tuman to'siqlar avjiga chiqmoqda edi. Shunday tahdidli davrda ma'rifatparvarlar birlashib, Toshkentdagi "Ko'mak", Buxoro Xalq jumhuriyati homiyligida ellikdan ortiq, iqtidorli yoshlarni Germaniyaga o'qishga yubordilar. Bu ezgu tashabbusning boshida Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, ayniqsa, Fayzulla Xo'jayev jonbozlik ko'rsatgan edi.

Fayzulla Xo'jayev taqdiri o'ziga fikrdosh ziyolilar bilan bir xil kechdi. 1937-yil qamoqqa olingach, u "hokimiyatga qarshi aksilsovet o'ng trotskiychi blok faoliyatiga qo'shilgan"lik hamda "Milliy ittihad" yashirin tashkiloti faoliyatiga rahbarlik qilganlik,

“bosmachilik” harakati va qo‘rboshilarni qo‘llab-quvvatlaganlik, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy va boshqa o‘zbek ziyolilariga g‘amxo‘rlik ko‘rsatganlikda ayblandi. Buxoro shahridagi Fayzulla Xo‘jayev uy-muzeyi 1996-yilda respublika Vazirlar Mahkamasining “Fayzulla Xo‘jayev tavalludining 100 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Yirik siyosatchi va davlat arbobi nomini abadiylashtirish uchun u istiqomat qilgan uyga Vazirlar Mahkamasining “2017-yilda qayta tashkil etiladigan davlat muzeylari to‘g‘risida”gi qarori asosida bu go‘sha “Boy savdogar xonadoni uy-muzeyi” nomi bilan faoliyat yurita boshladi. Keyinchalik hukumatning tegishli qaroriga muvofiq, majmua “Fayzulla Xo‘jayev uy-muzeyi” deb qayta nomlandi. Ayni paytda u yerda besh yuzdan ziyod eksponat bor. Ta’kidlash joizki, Fayzulla Xo‘jayevning siyosiy va ma’rifatparvarlik faoliyati o‘tgan asrning boshlarida O‘zbekistonning siyosiy maydonida sodir bo‘lgan murakkab va keskin o‘zgarishlar davriga to‘g‘ri keladi. U iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni hal etishda O‘zbekiston manfaatlarini imkon qadar himoya etish uchun barcha kuchini safarbar qilgan edi. Ma’rifatparvar – ma’rifat uchun kurashuvchi; ilm, bilim chirog‘ini yoquvchi; ma’rifat homiysi va tarafdori demakdir. Fayzulla Xo‘jayev g‘oyat og‘ir sharoitlarda ishlab, millatning ma’naviyatini yuksaltirish, uning qadr-qimmatini e‘zozlash borasida katta ishlarni amalga oshirgan edi. Bugungi Yangi O‘zbekiston sharoitida Fayzulla Xo‘jayev kabi insonlarning tarixiy xizmatlarini yodga olish har jihatdan foydali bo‘ladi. Jadidlarning bizga meros bo‘lib qolgan ilm-u ma’rifatga undovchi asarlari va g‘oyalari hozirgi davr manfaatlariga hamohang bo‘lsa, ularning hayoti va ijodi bilan chuqurroq tanishish yosh avlodning millatparvar bo‘lib ulg‘ayishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Milliy istiglol mafkurasi zalqimiz o‘tmishinigina emas, uning ko‘zga ko‘ringan arboblarini ham bilishni, o‘rganishni hamda ular to‘g‘risida tariziy haqqoniylik zaminida tuib, so‘z yuritishni muhim vazifa kilib go‘ymogda. Sho‘ro hokimiyati davrida Markaziy Osiyoda, jumladan O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy va boshqa jabhalarda faoliyat ko‘rsatgan xalqimiz vakillari, ularing shaxsi, ro‘y bergan voqealarga munosabatlarini tadqiq etish murakkab, lekin zarur, dolzarb ilmiy muammodir. Rahbar lavozimlarda xizmat qilgan F.Xo‘jayev va uning zamondoshlari faoliyatlariga ular oqlangandan keyin ham haqqoniylik bilan baho berimasdan kelindi.

Buxoro Respublikasi va O‘zbekiston hukumatlari boshligi bo‘lgan F.Xo‘jayevning faoliyati bir qator risolalar va maqolalarda yoritilgan. Uning saylanma asarlarining uch jildligi o‘zbek va rus tillarida nashr qilingan. Ayii paytda uning boy ijodiy merosini o‘rganini F. Xo‘jayev O‘zbekistonning aholi va xalqning kelajagi to‘g‘risida teran, istiglol g‘oyalari bilan hamohang fikrlami ilgani surganini, ularni hayotga tadbiiq etishga jon-dili bilan intilganini ko‘rsatmoqda Respublikamizning mustaqilligi sharoitida bu merosni, uning istiqlol mafkurasi uchun qimmatli bo‘lgan tomonlarini o‘rganish jiddiy ilmiy nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. F.Xo‘jayevning ijtimoiy-siyosiy qarashlari uning ko‘p qirrali va sermazmun faoliyati ikkita ijtimoiy tuzum, ulardagi munosabatlar,

voqealar kechgan jarayonlar bilan uzviy bogʻliq boʻlgan, ulari aks ettirgan. Birinchisi 1920 yilgacha boʻlgan davr, ikkinchisi 1920 yildan keyingi davrlar?.

### Foydalangan adabiyotlar

1. <https://jadid.uz/marifatparvar-fayzulla-xojayev/>
2. Ражабов. К - файсути Хуае. Тошент, "Абу - Мазбуот консал", 2011.11-6
3. Xoʻjayev, F. (1926). \*Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar\*. Moskva: (nashriyot maʼlumotlari turli nusxalarda farqlanadi).  
Behbudiy, M. (1999). \*Tanlangan asarlar\*. Toshkent: Sharq.
4. Abdirashidov, Z. (2011). Turkiston va Buxoro jadid matbuoti tarixiga doir tadqiqotlar. Toshkent: Akadernashr.
5. Xoʻjayev, F. (1926). Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. Moskva: (nashriyot maʼlumotlari turli nashrlarda farqlanadi).
6. Mustaqillik davridagi yangicha, arxiv hujjatlariga asoslangan xolisona baholar toʻplami. "Fayzulla Xoʻjayev — jurnalist va publitsist", M. Baqoyev Toshkent, 1992
7. Siyosatchining matbuotdagi, xususan "Uchqun" gazetasidagi publitsistik faoliyati tahlili. "Fayzulla Xoʻjayev", M. Hasanov Toshkent, 1990
8. Allomaning hayot yoʻli, jadidchilikdan qatagʻongacha boʻlgan fojiali qismati yoritilgan kitob. "Fayzulla Xoʻjayev", O. E. Eshonov Toshkent, 1973
9. Sovet davrida yozilgan boʻlsa-da, boy faktik va xronologik materialga ega dastlabki tadqiqotlardan biri. "Fayzulla Xodjayev. 100 let" (Toʻplam) Navoiy, 1998
10. Fayzulla Xoʻjayev hayoti va faoliyati haqida yangi mulohazalar Toshkent, 1997